



POLISEMIYANING TURLI SATH BIRLIKLARIDA NAMOYON BO'LISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852908>

Nurmatova Gulnoza Arabjonovna

Farg'ona davlat universiteti lingvistika: ingliz tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

nurmatovagulnoza795@gmail.com

Qurbonova Sayyora Maxamadaliyevna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD

Abstrakt: Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: polisemiya, ko'p ma'nolilik, omonimiya, frazeologik birlik, lug'aviy ma'no, leksik kontekst

So'zning ko'p ma'no anglatishi tilda mustaqil tizim bo'lib, bu hodisa umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan nomlanadi. So'z dastlab bir ma'noni atash uchun qo'llanilib, davrlar o'tishi va turli lingvistik ta'sirlar vositasida bir necha ma'noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi.⁹⁷

Ko'p ma'nolilik til rivojida katta o'rin tutib, uning lug'at tarkibini boyishiga ulkan hissa qo'shadi.

Lug'aviy ma'noning taraqqiy etishi frazeologik birliklarga ham xos hodisa hisoblanadi. Ma'lumki, frazeologik birliklar har bir tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular boshqa til birliklari singari semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya va polisemiya kabi hodisalarga duch keladi.

Polisemiya nafaqat lug'aviy birliklarga, balki grammatik birliklarga ham xos hodisa bo'lib, shu jihatdan ikkiga bo'linadi:

I. Lug'aviy polisemiya — lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi ya'ni *dars* so'zi 1) "o'quv yurtlarida ilm, ma'lumot olish yoki berish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulot, saboq", 2) "tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq" kabi mazmunda ishlatilsa; ingliz tilidagi *wing* (*noun*) so'zi quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi:

- 1."qanot" . One of the bird's wings is broken - Qushning bir qanoti singan.
2. "tomon". Look in your wing mirror. - O'zing tomondagi ko'zguga qara.

II. Grammatik polisemiya — Grammatik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: - ga 1) o'zi qo'shilgan negiz harakat yo'naltirilgan predmet ekanini bildiradi: Ukamga

1. Миртожиев М. Узбек тилида полисемия. -Т.: ФАН, 1975. -Б. 47.



tikildim; - ga 2) o'zi qo'shilgan negiz harakatni bajarishda maqsad bo'lgan predmet ekanini bildiradi: Ukamga oldim kabi.

Lug'aviy polisemiya ham o'z navbatida ikki turga ajratiladi: leksik polisemiya so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasi hisoblansa, frazeologik polisemiya iboralardagi ko'p ma'nolilikni ifodalaydi: *gap qaytarmoq* -1) javob qilmoq; 2) e'tiroz javobini bermoq, aytishmoq kabi.

Frazeologik polisemiya ham xuddi leksik polisemiya bo'lganidek bosh ma'no va yasama ma'no farqlanadi. Ammo leksik polisemiya bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiya bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi. ⁹⁸

Hozirgi o'zbek va ingliz frazeologik birliklarida lug'aviy ma'no asosan, metafora yo'li bilan ko'chirish natijasida taraqqiy etgan. Masalan, "ko'ngliga tegmoq" frazeologik birligi asli biror ovqat tez-tez iste'mol qilinishi tufayli "yoqmay qolmoq" ma'nosini anglatadi. Bu frazeologik birlik keyinchalik ovqatdan boshqa narsalarga, shuningdek, kishilarga qarata ham ishlatilgan, bunday ko'chirish natijasida bu frazeologik birlikda - tabiatiga to'g'ri kelmay qolib, "yoqtirmaslik hissi uyg'ondi" ma'nosi hosil bo'lgan:

1) Mastava ko'ngillaringizga tegib yurgandir.

2) Ammo har kuni bir xil narsani takrorlayverish uning ko'ngliga tegdi

Polisemantik frazeologik birliklar o'zbek tilida ham anchagina bo'lib, ingliz tilida nisbatan kamroq uchraydi. Polisemantik frazeologik birliklarning aksariyati ikki va uch ma'nolidir. Masalan, *quloq solmoq* - 1) tinglamoq; 2) aytganini qilmoq ma'nolarini ifodalasa, *ko'z olaytirmoq* frazeologik birligi - 1) o'qraymoq; 2) o'z manfaatiga bo'ysundirish niyatida bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, *qo'lga tushmoq* frazeologik birligi uch ma'noni bildirib keladi: 1) tutqun bo'lmoq; 2) biror nojo'ya ish bilan tutilmoq; 3) aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'ymoq; *boy bermoq* birligi ham uchta ma'noga ega - 1) yutqizmoq, 2) behuda, befoyda o'tkazmoq; 3) ("sir"ni) oshkor qilmoq, sezdirib qo'ymoq.

Qo'lga olmoq frazeologik birligi esa quyidagi to'rt ma'noni anglatadi: 1) o'z ixtiyoriga o'tkazmoq, 2) qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq; 3) hib qilmoq, qamash maqsadida tutmoq; 4) biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq.

Ingliz tili frazeologiyasida ko'p ma'nolilik munosabati keng yoritilmagan bo'lib, A.B Kunin frazeologik lug'atida ham faqatgina 3% ko'p ma'noli frazeologik birliklar ko'rsatib berilgan [8;38].

Ko'p ma'noli iboralarda uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Masalan, "the leading man" iborasini tahlil qilsak, bu uch ma'noli frazeologik birlik bo'lib, ma'nolar orasidagi bog'lanish bevosita ko'zga tashlanadi:

1) ajralib turadigan, mashhur inson;

2) atoqli davlat arbobi;

3) teatrdagi bosh rol ijrochisi.

⁹⁸ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., O'QITUVCHI. 1978. -B. 5



Har uchala ma'no uchun umumiy jihat "muhim, taniqli shaxs" semasi hisoblanadi. Frazеologik birliklar nechta ma'nodan tarkib topgan bo'lmasin, ulardagi semantik umumiylik albatta ko'zga tashlanadi.

Frazеologik ma'nolar ham, xuddi leksik ma'nolarda bo'lganidek, o'ziga xos kontekstda namoyon bo'ladi. Polisemantik frazeologik birlikning ma'nolari o'zaro, lug'aviy ma'nosidan tashqari, leksik kontekstida, grammatik tabiatida farqlanib turishi mumkin. Masalan, *boy bermoq* frazeologik birligi lug'aviy uch ma'noni anglatadi:

- 1) "yutqizmoq",
- 2) "yo'qotmoq", "behuda, befoyda o'tkazmoq",
- 3) "oshkor qilmoq".

Har uch ma'no turlicha leksik kontekstda namoyon bo'ladi: birinchisida qimorni, garovni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida vaqtni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa sirni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi.

Ingliz tilida ham xuddi shunday frazeologik birliklarning ma'nolari kontekstda namoyon bo'ladi. Masalan, *gain ground* frazeologik birligi uch lug'aviy ma'noni anglatadi:

- 1) "qurshab olmoq, yoki ega bo'lmoq",
- 2) "rivojlanmoq",
- 3) "yoyilmoq".

Uchala ma'no leksik kontekstda anglashiladi: birinchisida siyosatni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida shaxsiy munosabatlarni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa hissiyotni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi. Shu bilan birga ingliz tilida kontekstning ahamiyatga ega ekanligi frazeologik birlik bilan erkin bog'lanma orasida namoyon bo'ladi. Masalan, "*to let the cat out of the bag*" frazeologik birligi "sirni oshkor qilmoq" lug'aviy ma'noga ega, ammo bu frazeologik birlik erkin bog'lanma sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bu esa frazeologik birlikdan tashqaridagi kontekstda o'z isbotini topadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar hamda ular o'rtasidagi polisemiya hodisasining o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Lekin ikkala tilda ham umumiylik bitta, ya'ni frazeologik polisemiya - frazeologik birliklarning bir necha leksik ma'nolarga ega bo'lishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миртожиев М. Узбек тилида полисемия. -Т.: ФАН, 1975. -Б. 47.
2. Hamdamov L. Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklarida polisemiya// "Science and Education" Scientific Journal. -2020
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik -Т.: "Talqin", 2005.
4. Mukaramxodjayeva T. Ingliz tilida so'zlashuv frazeologiyasi. Dissertatsiya. Samarkand. - 2014



5. Nazarova S. "Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarda polisemiya". Bitiruv malakaviy ishi. Buxoro. -2012
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1978.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., 1978
8. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – B., 1999.
9. Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964. –38 с.
10. Кунин А.В. Внутренняя форма фразеологических единиц // Слово в грамматике и словаре, – М., 1984.
11. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970.
12. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3 (10), 126–128.
13. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93).
14. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.